




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-mart)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.

2023- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1386,5 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 42,8 mln. AQSh dollariga yoki 3,2 %ga ko'paydi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 447,7 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 99,3 %) va import hajmi 938,8 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 105,1 %) yetdi. Hisobot davrida 491,1 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-martga nisbatan, %da)

2023- yil yanvar-mart

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	332,4	128,5	203,9	24,0
Xitoy	249,6	52,1	197,5	18,0
Qozog'iston	223,0	18,3	204,7	16,1
Turkiya	156,6	117,8	38,8	11,3
Braziliya	68,5	0,0	68,5	4,9
Singapur	57,7	28,7	29,0	4,2
Germaniya	36,7	3,3	33,4	2,6
Belorussiya	31,6	4,1	27,5	2,3
AQSH	22,3	18,3	4,0	1,6
Tojikiston	19,5	8,6	10,9	1,4
Qirg'iz Respublikasi	15,2	9,1	6,1	1,1
Italiya	14,0	3,8	10,2	1,0
Vetnam	14,0	0,1	13,9	1,0
Litva	12,9	5,2	7,7	0,9
Niderlandiya	10,9	8,4	2,5	0,8
Afg'oniston	10,0	9,8	0,2	0,7
Ozaybayjon	8,3	2,7	5,6	0,6
Eron	8,2	0,8	7,4	0,6




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,0 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 114,0 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-mart oylarida 54,0 %ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,0 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,4 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2023- yil yanvar-mart, % hisobida)






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2023- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-mart)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2023-yil yanvar-mart oyi yakuni bilan 447,7 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 99,3 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (66,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,4 %), turli xil tayyor buyumlar (13,4 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (2,2 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,4 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunolari (2,2 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	447,7	178,2	269,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	46,5	19,8	26,7	10,4	11,1	9,9
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,2	0,2	0,3	0,7	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	9,8	3,4	6,4	2,2	1,9	2,4
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	1,0	0,1	0,9	0,2	0,1	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,00	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	19,6	16,2	3,4	4,4	9,1	1,3
Sanoat tovarlari	298,8	71,3	227,5	66,7	40,0	84,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	9,7	7,5	2,2	2,2	4,2	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	60,2	58,2	2,0	13,4	32,6	0,7
Xizmatlar	0,7	0,5	0,2	0,2	0,3	0,1





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar-mart)

2023- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	99,3	113,1	91,9
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	120,6	134,1	112,2
Ichimliklar va tamaki	2,0 m.	2,0 m.	15,0 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	50,1	30,5	76,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	4,0 m.	72,8	33,0 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	176,0	195,7	119,5
Sanoat tovarlari	92,3	103,8	89,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	104,4	81,9	16,0 m.
Turli xil tayyor buyumlar	134,0	133,0	170,3
Xizmatlar	27,4	49,4	14,8

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 344,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 76,8 %ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 30,1 mln. dollar qiymatga ega 35,2 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 70,3 %ga ko'paygan, naturada 83,9 %ga ko'payish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 25,3 mln. AQSh dollariga teng 30,6 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 20,2 %ga kamaygan), shuningdek, 5,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 3,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 6,1 %ga ko'paygan).

2023- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
3,7 ming tonna
5,8 mln. AQSH
dollari



Uzum
4,4 ming tonna
4,6 mln.
AQSH dollari



Yeryon-g'ochlar
0,8 ming tonna
2,0 mln. AQSH
dollari



Sabzavotlar
26,9 ming tonna
19,5 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-mart oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 25,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,6 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-mart)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oylari mobaynida import hajmi 938,8 mln. AQSh dollari (2022- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 105,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,0 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (17,8 %), sanoat tovarlari (13,0 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (9,3%) hisobiga to'g'ri keldi.





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-mart)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	938,8	463,7	475,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	169,4	75,4	94,0	18,0	16,3	19,8
Ichimliklar va tamaki	1,1	0,8	0,3	0,1	0,2	0,04
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	167,0	131,1	35,9	17,9	28,2	7,56
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	91,3	90,2	1,1	9,7	19,4	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	22,9	20,4	2,5	2,4	4,4	0,5
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	87,3	19,8	67,5	9,3	4,3	14,2
Sanoat tovarlari	121,8	69,1	52,7	13,0	14,9	11,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	257,9	51,5	206,4	27,5	11,1	43,5
Turli xil tayyor buyumlar	18,2	4,4	13,8	1,9	1,0	2,9
Boshqa tovarlar	0,6	0,4	0,2	0,1	0,1	0,0
Xizmatlar	1,3	0,6	0,7	0,1	0,1	0,2



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (28,3 %) va sanoat to varlari (14,9 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (19,8 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar-mart, % hisobida)

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	105,1	114,4	97,5
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	103,9	98,8	108,4
Ichimliklar va tamaki	138,2	112,7	70,2 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	136,6	115,4	4,1 m.
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	3,5 m.	3,5 m.	2,0 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	199,6	181,6	9,5 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	89,8	90,9	89,5
Sanoat tovarlari	67,2	54,0	99,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	109,3	2,4 m.	96,2
Turli xil tayyor buyumlar	48,9	92,5	42,4
Boshqa tovarlar	33,2	21,2	28,0
Xizmatlar	8,1	2,1 m.	4,7

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar- mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Qozog‘iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Belorussiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 82,5 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, bu umumiy import hajmining 82,5 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo‘limi**
Tel.: (71) 202-86-59